

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNI
RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI**

265-DMTT: Defektolog – Logoped:

Xamzayeva Dilafruz

Annotasiya: Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin metodikasining logopediya mashg'ulotlarida qanday samarali ishlatilishini, o'yin metodikasining umumiy tavsifi. Nutqni rivojlantirishda o'yinning ahamiyati. Bolalar bilan ishlashda qanday yondashuvlar mavjudligi va logopediya mashg'ulotlarida o'yinlardan namunalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Logopediya terapiyasida o'yin, lug'at boyligi, didaktik o'yinlar, o'yin metodining roli.

Abstract: The article describes how game methodology is effectively used in speech therapy classes, a general description of game methodology and its role in the educational process. The importance of the game in the development of speech. There are also examples of games in speech therapy classes and approaches to working with children.

Key words: game, process, interest, game in speech therapy, vocabulary, didactic games, role of game method.

Аннотация: В статье описано, насколько эффективно используется игровая методика на логопедических занятиях, дана общая характеристика игровой методики и ее роль в образовательном процессе. Значение игры в развитии речи. Также приведены примеры игр на логопедических занятиях и подходы к работе с детьми.

Ключевые слова: процесс, интерес, игра в логопедии, словарный запас, дидактические игры, роль игрового метода.

KIRISH:

Logopediyada Pedagogik metodlar va vositalar quyidagilardan iborat;

O'yinli mashg'ulotlar – didaktik o'yinlar, dramatizatsiya, harakatli o'yinlar;

Ko'rgazmali metodlar – suratlar, kartochkalar, interaktiv ta'lim vositalari;

Taktil va kinestetik mashqlar – barmoq gimnastikasi, harakatli mashqlar;

Nutqni modellashtirish – gap qurish, hikoya tuzish, savol-javob mashqlari;

Nutq terapiyasi elementlari – artikulyatsion gimnastika, fonematik eshitishni rivojlantirishdan iborat. Maktabgacha ta'limda logopedik o'qitish bolalarning nutqiy rivojlanishiga pedagogik yondashuv asosida olib boriladi. Tizimli, interaktiv va individual yondashuvlardan foydalanish orqali bolalarning nutqiy qobiliyatlari yaxshilanib, ular maktabga tayyor bo'lishadi. Individual yondashuv orqali har bir bola uchun alohida mashg'ulot rejalari tuziladi. Didaktik tamoyillar bilan o'yin uslubi,

ko'rgazmalilik va bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida tashkil qilinadi. O'qitishning izchilligi bilan oddiy talaffuz mashqlaridan murakkab grammatik strukturalarga o'rgatiladi. Logopediya texnologiyasida o'yin metodikasining ahamiyati katta. O'yin bolalarning til rivojlanishini, so'z boyligini oshirishni, lug'at boyligini oshirishda, talaffuzni to'g'rilashni, fonetik fonematik idrokni, mayda va yirik motorikani rivojlantirishda, muloqot ko'nikmalarini yaxshilashni, bilish jarayonlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. O'yin jarayonida bolalar tabiiy ravishda, qiziqish bilan faol ishtirok etadilar, bu esa o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. O'yin yordamida logopedik mashqlarni osonlashtirish, ularni bolalarga tushunarli va qulay qilish mumkin. Bundan tashqari, o'yin metodikasi bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy va emosional rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu orqali bolalar bir-birlariga muloqot qilishni o'rganadilar va so'z boyligini oshiradilar. Shuningdek, o'yin olaning diqqatini jamlashga, yaratish va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinning tizimli va ongli ravishda qo'llanilishi logopediya muammolarining yechimi uchun samarali vosita hisoblanadi.

Logopedik metodlar: O'yin jarayonida bolaning axloqiy sifatlari tarbiyalanadi, bular: dadillik, qat'iyatlilik, adolatlilik (vijdonlilik), hayrixohlikdir. Aksariyat o'yinlar jamoaviy harakterga ega bo'lganligi sababli, ular jamoada muloqotga kirishish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolani o'yinchoqlarga va o'yin materiallarga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatini, dastlabki mehnat malakalarini shakllantirishda ham o'yin faoliyatidan foydalanish lozim. Nafas olish mashqlari xususan og'izni yumib turib burun orqali nafas olish va nafas chiqarishni har kuni bir necha minutdan 3-4 hafta davomida mashq qilishni taqozo qiladi. Bolalar bilan logopediya mashg'ulotlarida nutqni rivojlantirishda o'yin metodikasining ro'li bo'yicha olib borilgan izlanishlar turli pedagogik va psixologik yondoshuvlarni o'rganishga asoslangan. O'yin bolalar psixologiyasiga, til va nutq rivojlanishiga samarali yordam beradi. Nutqini rivojlantirishda, samarali natija beradigan o'yinalardan misollar keltirib o'tamiz. Tishlarimizni tozalaymiz. **Maqsad:** Til harakatini faollashtirish.

O'yinning borishi: Bola logopedga qaragan holda o'tiradi. Bolaga rasm ko'rsatiladi. Qarang, bola qanday qilib tishlarini tozalayapti? Biz ham hozir sizlar bilan tishlarimizni tozalaymiz. Faqat cho'tka bilan emas, balki tilimiz bilan. Avval logoped til bilan tishlarini tozalashni bolalarga o'zi ko'rsatib beradi. So'ngra har bir bolani oldiga chaqirib mashqni bajarishini kuzatib boradi. Mashq bir necha marta bajartiriladi.

"Shirin murabbo" o'yini. Maqsad: Til harakatini faollashtirish.

O'yinning borishi: Bolalarga murabboni yalayotgan qizning rasmi ko'rsatiladi. Qizning yuqori va pastki labiga murabbo yopishib qoldi. Qiz murabboni tili bilan yaladi. (Til harakati bilan murabboni yalash ko'rsatiladi). So'ngra

bolalar ham ushbu mashqni qaytaradilar. Logoped har bir bola mashqni qanday bajarayotganini kuzatib boradi.

Kapalaklar uchyapti” o’yini. O’yinning maqsadi: To’g’ri, uzluksiz havo oqimini hosil qilishga erishish O’yinning borishi: Bola stulchaga o’tiradi. Logoped bolaga:

-Qarang-a, qanday chiroyli kapalaklar: ko’k, sariq, qizil! Ular xuddi jonli kapalaklarga o’xshaydi. Ko’raylik-chi, ular ucha oladilarmi? Kapalaklarni puflaydi.

-Qarang, uchib ketishdi. Qani, sizlar ham puflab ko’ringlar-chi. Kimniki uzoqqa uchar ekan?

Bola har bir kapalakning qarshisiga turib puflaydi

NATIJALAR:

Bolalarda Nutqni rivojlantirish o’yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Bolalar nutq orqali fikr almashadi, o’z his-tuyg’u, kechinmalari bilan o’rtoqlashadi. Bolalar o’rtasidagi nutq do’stona munosabatlar o’rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo’lishga yordam beradi. Bolalarning o’zi yaratgan o’yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o’yinning g’oyasi, mazmuni, o’yin harakatlari, rollar, o’yin qoidalari uning tuzilishini va bolaning ichki kechinmalarini tashkil etuvchi qirralardir. Demak, ijtimoiy hayot o’zgarishi bilan uning mazmuni ham o’zgarishi tabiiy. O’yin ma’lum maqsadga ko’ra yo’naltirilgan ongli faoliyat bo’lib, uning mehnat bilan ko’p umumiyliigi bor va bu faoliyat bolalarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O’yin faoliyati asosida bolada o’quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o’yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Logopedik mashg’ulotlar bir maqsadga yo’naltirilgan murakkab tashkil etiladigan jarayon bo’lib, bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Hususan bolani taffakuri, idroki, lug’at boyligini oshirishga, fonetik fonematik idrokini rivojlantirishga qaratilgan bolishi kerak. Ularning har biri

o’zining maqsadi, vazifasi, metod va usullari bilan belgilanadi. Logopedik mashg’ulotlarda olib boriladigan metodlar orasida o’yin metodi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O’yin metodi – o’yin faoliyatini boshqa usullar, ya’ni namoyish qilish, tushuntirish, ertak terapiya, guruhli ishlash, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutiladi. O’yin metodida asosiy, yetakchi rolni tarbiyachi va bola o’ynaydi. U korreksion ishlarni vazifalari va bosqichlariga mos ravishda o’yin turini tanlaydi, rollarni bo’lib beradi va bolalarning faoliyatini faollashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan turli xil o’yinlar olib boriladi: Ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, sahnalashtirilgan va hokazo. Ularning qay tariqa qo’llanishi korreksion ishning vazifalari va bosqichi, nutqiy nuqson tuzilishi, bolalarning yosh va individual – ruhiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

MUHOKAMA:

Didaktik o'yinlar - bolalarga ta'lim berish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Quyida turli xil didaktik o'yinlardan namunalarkeltiramiz:

Mevalar va Sabzavotlar: Mevalar va Sabzavotlar mulyaji va kartochkalari yordamida o'yin tashkil etiladi. Bolalar Meva va Sabzavotni nomi bilan atab kartochkalar ustiga mulyajni qo'yib chiqadilar. O'yinni mustahkamlash: Bolani ko'zi yopib turiladi, savatdagi xaqiqiy mevani tarbiyachi bolaga yedirib ko'radi bola mevani mazzasidan qaysi meva ekanin topib aytadi.

So'z o'yinlari: So'zlarni to'plash yoki so'zlardan yangi so'zlar yaratish.

Misol uchun, "L" harfi bilan boshlanadigan so'zlarni topish o'yini. Masalan: Lola, Olma, Tulki.

Xotira o'yinlari: Kartochkalardan bir nechta juftliklar joylashtiriladi, va bola ulardan mos keladigan juftlarni topish kerak.

Matematika o'yinlari: 20 tagacha raqamlar bilan sanash yoki oddiy qo'shish va ayirish mashqlarini bajarish. Misol uchun, raqamlarni mos ravishda joylashtirish. Quyidagi jihatlar o'yinlarning nutqni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi:

Qiziqarli o'rganish: O'yinlar bolalar uchun ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Nutqni o'rganish o'yinlar yordamida ko'proq zavqli va samimiy bo'ladi.

So'z boyligini oshirish: O'yinlar davomida bolalarda bilish jarayonlarini rivojlanishi, yangi so'zlar, ifodalar va til strukturalarini o'rganadilar. Misol uchun, yangi so'zlarni tushunish va ularni to'g'ri ishlatishni o'rganadilar.

XULOSA: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, nutqni rivojlantirishda o'yin metodikasi bolaning eshitish qobiliyatini, xotira, tafakkur, nutq xususiyatlarini, lug'at boyligini oshirishni, mayda va yirik motorikasini, bilish jarayonlarini, fonetik fonematik idrokni, bolani sensor soxasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'yin bolaning muloqotga kirishuvchanligini oshirib, uning rivojlanishiga olib keladi. Buning oqibatida bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, uning ziyrak, hushyor bo'lishga, zavqlanishga o'rganadi. Shuningdek, bola olamni bilish, o'rganish harakatida bo'ladi. Intizomli bo'lish, chaqqonlik, tez fikr yuritishga intiladi. Logoped bu o'yinlarni bolaning ehtiyojiga mos ravishda moslashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" Toshkent 2016 –yil.
2. "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion logopedik ish" o'quv – uslubiy majmua.
3. M.Y.Ayupova. "Logopediya" 10.08.2007-yil 4. Raxmanova V.S. "Korreksion pedagogika va logopediya" 2007-yil 5. M.Y.Ayupova. "Logopediya" O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil